QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 2-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

HIKOYA JANRINING ADABIYOT TA’LIMIDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI

https://doi.org/10.70728/b.series.v08.i02.047

Maxmudova Umriniso Mansurbekovna,
Urganch davlat pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi talabasi
3-bosqich talabasi
+998905792026
maxmudovaumrniso18@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada adabiyotning yorqin nomoyondalaridan biri bo‘lgan Said Ahmad haqida so‘z boradi. Uning “Qoplon” hikoyasi tahlilga tortiladi. Hikoyaning adabiy ta’limdagi o‘rni ko‘rib chiqiladi. Hikoyada keltirilgan yomon illatlarga ham alohida to‘htalib o‘tiladi.

Kalit so‘z: hajviy, yumor, satira, ikkiyuzlamachilik, sadoqat, vafo, agitplakatlar

Abstract. This article discusses Said Ahmad, one of the prominent figures of literature. His story "The Leopard" is analyzed. The role of the story in literary education is considered. The evils mentioned in the story are also discussed separately.

Keywords: comic, humor, satire, hypocrite, loyalty, fidelity, propaganda posters

Аннотация. В статье рассматривается Саид Ахмад, один из выдающихся деятелей литературы. Анализируется его повесть «Леопард». Рассматривается роль этой повести в литературном воспитании. Отдельно рассматриваются пороки, упомянутые в повести.

Ключевые слова: комическое, юмор, сатира, лицемерие, преданность, верность, пропагандистские плакаты

O‘zbek adabiyoti tarixida har bir asrning ko‘zga ko‘ringan, asarlari kitobxonlar orasida qo‘lma-qo‘l bo‘lgan, turli xil muhokamalarga sabab bo‘lgan yozuvchilari bir talay. Buni professor Naim Karimov quyidagicha fikr bildirgan: “XX asr – insoniyat tarixidagi eng ulug‘ asrlardan biri”[4.3b]. Aynan XX asr boshlarida milliy uyg‘onish davrining yetakchilari, jadid namoyondalaridan Cho‘lpon, Qodiriy, Fitrat, Behbudiy, Hamzalar o‘zining bebaho asarlarini yaratgan bo‘lsa, asr o‘rtalarida G‘afur G‘ulom, Oybek, Pirimqul Qodirov, Said Ahmad va bir qancha yozuvchilar ham zamonaviy o‘zbek adabiyotida o‘chmas iz qoldirgan. Shunday ijodkorlardan biri bu Said Ahmaddir. Har bir insonning hayotda o‘z o‘rnini topishida, oldiga maqsad qo‘yib, shu maqsadlarga erishishida oilaning o‘rni beqiyosdir. Adibning tarbiya topgan oilasi ham o‘sha davrning ziyoli oilalaridan biri bo‘lgan. Bu muhit Said Ahmad shaxsiyatining

rivojlanishiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatgan. Yozuvchi qiziquvchanligi, har bir yo‘nalishda o‘zini sinab ko‘rishi bilan tengqurlaridan ajralib turgan. U juda ham ko‘p yo‘nalishlarda faoliyat olib borgan. Jumladan agitplakatlar yozgan, artist bo‘lishga urinib ko‘rgan, doktorlik maktabida o‘qigan, qurilish texnikumida tahsil olgan, rassomlik maktabiga qatnagan, gazetalarga xabarlar yozgan. Lekin uning dunyoga tanilishida adabiyotning o‘rni katta. Said Ahmadning adabiyotga kirib kelishining sababchilari G‘afur G‘ulom va Abdulla Qahhordir. Yozuvchining o‘zi bu haqda: “Aslida meni hajv yo‘liga G‘afur G‘ulom boshlab kirgan”[4.310b] deb aytib o‘tadi. Yozuvchi asarlarining asosini nasr tashkil qiladi. Kichik-kichik hikoyalardan tortib, qissalar, romanlar yaratgan. Adabiyotshunos olim Dilmurod Quronov aytganidek: “Hikoya badiiy adabiyotda o‘zining asosiy shakliy xususiyatini saqlagan holda uzoq o‘tmishdan beri yashab keladi”[1.92b] Yozuvchi hikoya janrida ham barakali ijod qilgan. Insonlardagi soddalik, tabiiylik, beg‘uborlik kabi ijobiy fazilatlarni juda yuqori baholagan va o‘z qahramonlariga ko‘chirgan. Salbiy illatlarni har doim qoralab, tag ma’no qo‘llash orqali kitobxonga yetkazib bergan. Said Ahmad hajviy yo‘lda salmoqli ijod qilgan. Barchamizga ma’lumki hajvning ikki xil usuli bo‘lib, bular satira va yumordir. Adib har ikkalasida ham barakali ijod qilgan va go‘zal namunalar yaratgan. Uning “Qoplon” hikoyasi ushbu fikrimizga yaqqol misol bo‘la oladi. Ushbu hikoya satiraning yetuk namunasi hisoblanadi.

Badiiy adabiyotda hayvonlar bosh obrazga ko‘tarilgan asarlar salmoqlidir. Bizning sharq adabiyotida hayvonlar majoziy ma’noda juda ko‘p qo‘llaniladi. Bunga misol qilib “Zarbulmasal”, “Lison ut-tayr” kabi o‘zbek adabiyoti durdonalarini aytishimiz mumkin. Ularda bosh obraz qilib hayvonlar tanlangan bo‘lib, insonlarga xos bo‘lgan illatlar yoki yaxshi fazilatlar hayvonlarga ko‘chirilgan. Hayvonlar orqali jamiyatdagi muammolar ochib berilgan. Xuddi shunday oldingi davrlarda ham Ota-bobolarimizdan it, ot kabi hayvonlar insonning eng yaqin do‘sti ekanligini ko‘p bora eshitganmiz. “Qorako‘z majnun”, “Ot egasi” hikoyalarini o‘qir ekanmiz it va otning o‘z egasiga qanchalik vafodor, sodiq ekanligini bilib olamiz. “Qorako‘z majnun” hikoyasida keltirilgan ushbu fikrda ham itning qanchalik mehribon ekanligini anglaymiz. “Kasalxonada yotganimda shu itgina ko‘kragini qorga berib, hovlida bir oy deraza tagida yotgan”.[3.90b] Shu asarlardagi kabi Said Ahmadning “Qoplon” hikoyasida ham it obrazi gavdalantirilgan. “Sizga endi bitta it lozim, o‘rtoq Tillayev. It uyning savlati. Albatta it boqing”.[5.216b] Hikoyadan olingan ushbu jumla yuqoridagi fikrlarimizning yaqqol dalili bo‘la oladi.

Har bir davrda jamiyatimizda mansabga ruju qo‘ygan, kibrga berilgan insonlar mavjud. Biror bir maqsadga erishish uchun qing‘ir-qiyshiq yo‘llarni tanlashadi. Bu yo‘ldan yurar ekanlar o‘zligini, or-nomusini, g‘ururini yo‘qotib qo‘yishadi. Hikoya qahramoni bo‘lgan Qurbonboy ham xuddi shunday insonlardan biri hisoblanadi. Aynan hikoya qahramoniga ism tanlash jarayonida ham uning xarakteriga alohida e’tibor qaratilgan. Yani o‘z maqsadi yo‘lida barcha narsasini qurbon qilishi ta’kidlab o‘tilgan. Yangi boshliqning ko‘ziga yaxshi ko‘rinish uchun laganbardorlik qiladi. Quyidagi jumla orqali bu illatlarning barchasi Qurbonboyda namoyon

bo‘lishini bilishimiz mumkin. “Iya, iya, biz turganda nega endi siz pol yuvarkansiz, opa? O‘zimiz qotirib tashlaymiz. Men gilam qoqayin-u, siz tomosha qiling”.[5.216b]

Shuni ham aytib o‘tishimiz joizki ikkiyuzlamachi insonlar vafodorlik, sadoqat kabi so‘zlarning ma’nosini bilishmaydi. Ular uchun bunday fazilatlar ahamiyatsiz bo‘ladi. Mansabdor shaxslarga tilyog‘lamalik qilishni juda zo‘r uddalashadi. Lekin o‘sha mansab egasi lavozimidan ozod qilinsa o‘rniga kelgan boshqa bir boshliqning yonginasiga o‘tib, uning marhamatiga sazovor bo‘lish uchun harakat qilishadi. Bunday insonlardan hayvon ham yaxshi ekanligini yozuvchi bir so‘z bilan chiroyli qilib o‘quvchilarga yetkazib bergan. “Chaqirsa, it qaradi-yu, Qurbonboy qaramadi”.[5.217b]

Yozuvchi ushbu hikoyada kinoya usulidan juda mohirona foydalangan. U bu usulni Abdulla Qahhordan o‘rganganligini ko‘p bora ta’kidlagan. Ushbu usul hikoyani yanada rang-barang bo‘lishiga o‘z hissasini qo‘shgan. “Bu itni taniyman” [5.217b] Ushbu jumla Tillayev nutqidan olingan bo‘lib, bu yerda it deganda Qurbonboy nazarda tutilgan. Chunki Qurbonboy Tillayev mansabdan ozod qilinganidan keyin, yangi boshliqning soyasiga ko‘rpacha solib yurgan edi. Shuning uchun ham ushbu nutqda Qurbonboy itga tenglashtirilgan.

Bugungi kunda yangi darsliklarda o‘quvchilarda taqqoslab o‘qish ko‘nikmasini shakllantirish maqsadida “Qoplon” hikoyasi bilan birgalikda jahon adabiyoti durdonalaridan biri bo‘lgan Chexovning “Xameleon” hikoyasi berilgan. Ushbu hikoyalar mavzu jihatidan juda o‘xshash. Ikkala hikoyada ham ikkiyuzlamachilik, laganbardorlik kabi illatlar qoralangan. O‘quvchilar bu hikoyalarni birgalikda o‘qir ekan bunday illatli kishilar hech bir jamiyatda o‘z o‘rnini topa olmasliklarini bilib oladilar.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, har bir asar o‘quvchilarga bir olam bilim beradi. Yozuvchi Said Ahmad ham o‘zining “Yo‘qotganlarim va topganlarim” asarida “Aytilgan gap o‘sha joyda qolib ketishi mumkin. Qog‘ozga tushgani tarix mulkiga aylanadi”[2.4b] deya aytib o‘tganlar. Bunday tarix mulkiga aylangan hikoyalarimizdan biri - “Qoplon”. Ushbu asarlarimiz, hikoyalarimiz o‘quvchilarni vafoli, sodiq, mehribon bo‘lishga undaydi. Ular ushbu asarlarni o‘qir ekan ikkiyuzlamachilik, laganbardorlik illatlari naqadar yomon ekanligini anglab yetishadi. O‘z maqsadlariga erishish uchun qing‘ir-qiyshiq yo‘llarni emas, balki o‘z g‘ururi, or-nomusidan kechmay turib, to‘g‘ri yo‘lda harakat qilishlari kerakligini tushunadilar. Mansab doimiy emasligini, unga erishgandan keyin ham kibrga berilmaslik keragligini bilib oladilar. Bu hikoyaning ham aynan maktab darsligida berilishidan asosiy sababi, jamiyatga foydasi tegadigan, barcha ishini halol bajaradigan, vijdonli, madaniyatli, ma’rifatli insonlarni yetishtirishdir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Dilmurod Quronov. Adabiyot nazariyasi asoslari. Toshkent: “Innovatsiya-Ziyo” nashriyoti, 2020. – 310b
2. Said Ahmad. Yo‘qotganlarim va topganlarim. Toshkent: “Sharq” nashriyoti, 2000. – 332b

3. Said Ahmad. Qorako‘z majnun. Hikoyalar to‘plami. Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2013. – 232b

4. Saydulla Mirzayev. XX asr o‘zbek adabiyoti. Toshkent: “Yangi asr avlodi” nashriyoti, 2005. – 420b

5. Zulxumor Mirzayeva, Komil Jalilov.7-sinf adbiyot. Darslik. Toshkent: “Yangi nashr” nashriyoti, 2022. – 224b